



UDK: 17.0(043.2)

Mukarram SAMANDAROVA,
Samarqand davlat chet tillari instituti tadqiqotchisi
E-mail: b.jurakulov0202@gmail.com

falsafa fanlari doktori D.Muratova taqrizi asosida

INSON VA TABIAT MUNOSABATLARINING EKOFALSAFIY TALQINI: EKOLOGIK MAS'ULIYAT DIALEKTIKASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada inson va tabiat munosabatlarining falsafiy talqini va ekologik mas'uliyat dialektikasi tahlil qilingan. Muallif tomonidan tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlar tarixiy rivojlanish jarayonida kechgan o'zgarishlar tizimli ravishda o'rganilgan. Texnologiya sivilizatsiya sharoitida yuzaga kelgan ekologik muammolarning falsafiy mohiyati, ularning inson hayoti va faoliyatiga ta'siri ochib berilgan. Maqolada zamonaviy dunyoda ekologik inqirozga qarshi kurashda ekologik mas'uliyat tushunchasining o'rni va ahamiyati, bu tushunchaning falsafiy talqini alohida o'rganilgan. Muallif tomonidan ekologik mas'uliyat dialektikasi ontologik, gnoseologik va aksiologik jihatdan tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: inson, tabiat, ekologiya, ekologik mas'uliyat, ekofalsafa, dialektika, tabiat va jamiyat, ekologik muammolar, ekologik tafakkur, barqaror rivojlanish.

ЭКОФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОТНОШЕНИЙ ЧЕЛОВЕКА И ПРИРОДЫ: ДИАЛЕКТИКА ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ

Аннотация

В данной статье анализируется философская интерпретация отношений человека и природы и диалектика экологической ответственности. Автор системно исследовал изменения взаимоотношений между природой и человеком в процессе исторического развития. Раскрыта философская сущность экологических проблем, возникших в условиях техногенной цивилизации, их влияние на жизнь и деятельность человека. В статье особое внимание уделяется роли и значению понятия экологической ответственности в борьбе с экологическим кризисом в современном мире, философской интерпретации этого понятия. Диалектика экологической ответственности исследуется автором с онтологической, гносеологической и аксиологической точек зрения.

Ключевые слова: человек, природа, экология, экологическая ответственность, экофилософия, диалектика, природа и общество, экологические проблемы, экологическое мышление, устойчивое развитие.

ECOPHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF HUMAN-NATURE RELATIONS: DIALECTICS OF ENVIRONMENTAL RESPONSIBILITY

Abstract: This article analyzes the philosophical interpretation of the relationship between humans and nature and the dialectics of environmental responsibility. The author systematically examines changes in the relationship between nature and humans throughout historical development. The philosophical essence of ecological problems that have arisen in conditions of technogenic civilization and their impact on human life and activity are revealed. The article pays special attention to the role and significance of the concept of environmental responsibility in combating the ecological crisis in the modern world, and the philosophical interpretation of this concept. The dialectics of environmental responsibility is studied by the author from ontological, epistemological, and axiological perspectives.

Keywords: human, nature, ecology, environmental responsibility, ecophilosophy, dialectics, nature and society, ecological problems, ecological thinking, sustainable development.

Kirish. Tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlar qadim zamonlardan beri falsafiy tafakkur markazida turgan masalalardan bo'lib, bu aloqalar insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotining barcha bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Bu munosabatlar tarixiy jihatdan turli davrlarda turlicha talqin qilingan bo'lib, qadimgi falsafiy ta'limotlardan tortib hozirgi zamon falsafasigacha bo'lgan yo'lda turli-tuman yondashuv va qarashlar yuzaga keldi. Hozirgi davrga kelib esa, bu aloqalar asosan ekologik mas'uliyat tushunchasi orqali yangicha mazmun va mohiyat kasb etmoqda. Global muammolar va ekologik inqirozlar sharoitida inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar yangicha falsafiy talqinni talab etmoqda.

Insoniyat tarixi davomida tabiatga bo'lgan munosabat uzoq va murakkab evolyusion rivojlanishni boshdan kechirgan. Dastlabki davrlarda tabiatni qo'rquv va ehtirom bilan ilohiylashtirish ustunlik qilgan bo'lsa, keyinchalik inson tabiatni bo'ysundirish, undan foydalanish va tasarruf qilish

g'oyalariga o'tdi. Industrial rivojlanish davrida tabiatga nisbatan iste'molchilik munosabati kuchaydi. Bugungi kunga kelib esa, tabiat bilan hamkorlik, tabiatga moslashish, ekologik muvozanatni saqlash va tabiat bilan uyg'unlikda yashash zarurati tobora kuchaymoqda. Shu tariqa, inson va tabiat munosabatlari uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tib, hozirda yangi sifat bosqichiga – insoniyatning ekologik mas'uliyat bilan yo'g'rilgan faoliyat davriga o'tmoqda.

XX asrning ikkinchi yarmida dunyo miqyosida ekologik muammolarning keskinlashuvi natijasida, ekologik mas'uliyat tushunchasi falsafiy tafakkurning markaziy masalalaridan biriga aylandi. Bu o'zgarish ta'sirida inson va tabiat munosabatlarini qayta anglash, tabiatga bo'lgan munosabatda yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish zarurati paydo bo'ldi. Ekologik mas'uliyat dialektikasi esa ushbu jarayonning falsafiy mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Inson va tabiat munosabatlarining ekofalsafiy talqini hamda ekologik mas'uliyat dialektikasi masalasi ko'plab olimlar tomonidan turli nuqtai nazardan o'rganilgan. Bu boradagi ilmiy izlanishlar va falsafiy qarashlar tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.

«Insoniyatning tarixiy rivojlanish tajribalari bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan boshqasiga o'tish davrida "tabiat-jamiat-inson" munosabatlarida ham an'anaviylik va vorisiylik o'rtasida uzilishlari ro'y berishini ko'rsatib bergan, - deb yozadi Sh.Rasulova.- Xususan, iqtisodiy va siyosiy hayotning beqarorlashuvi bevosita ekologik munosabatlarda ham kuzatiladi. Lekin, ekologik munosabatlar globallasuvi bu jarayonni boshqarishni ma'naviyaxloqiy jihatdan takomillashtirishni talab qiladi» [1].

A.Sher va B.Xusanovlarning ilmiy ishlarida mas'uliyat masalasi axloqiy tanlov bilan bog'liq holda chuqur o'rganiladi: «Dxtiyor erkinligi tufayli inson har qadamda axloqiy tanlov muammosiga duch keladi. Bu muammo kishida mas'uliyat hissi mavjudligidan dalolat beradi. Mas'uliyatni, o'zgarlar va o'z vijdoni oldida javobgarlikni sezmagani kishi xohlagan ishga qo'l urishi mumkin - uni o'z qilmishining oqibati qiziqitirmaydi, u faqat manfaat ustuvorligini tan oladi, xolos. Unday odamni axloqsiz deb ataydilar. Zero inson yo ezgulikni, yo yovuzlikni tanlashi tufayli nimanidir ixtiyor etadi: axloqiy tanlov - har bir xatti-harakat, har bir qilmishning ibtido nuqtasi» [2].

Albert Shveyserning «Hayotga ehtirom etikasi» ta'limoti ekologik mas'uliyat tushunchasining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Uning qarashlarida barcha jonzorlarga nisbatan axloqiy munosabat masalasi markaziy o'rin egallaydi: «Barcha etikalarning eng katta kamchiligi shunda ediki, ular faqat insonning inson bilan munosabatiga tegishli edi». Shveyserga ko'ra, «inson faqat hayot u uchun muqaddas bo'lganda axloqiydir, ya'ni nafaqat inson hayoti, balki hayvonlar va o'simliklar hayoti ham. Buyuk zanjirning barcha mavjudotlari teng darajada hurmatga va hatto ulug'lashga munosibdirlar, chunki ular tirik bo'lganlari uchun» [3].

Oldo Leopold «Er etikasi» konsepsiyasini ilgari surar ekan, insonning tabiatdagi o'rnini qayta anglash zarurligini uqtiradi. «Bu, - deb yozgan edi O. Leopold o'zining mashhur asarida, - qolgan hamjamiyat a'zolariga va butun hamjamiyatga hurmatni nazarda tutadi, bu esa o'z navbatida insonning barcha tirik mavjudotlarga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo'lishi zarurligini anglatadi» [4]. Leopoldning fikricha, inson tabiat bilan munosabatlarda o'z ustunlik mavqeini tashlab, o'zini Yer jamoasining oddiy fuqarosi sifatida his qilishi kerak.

Xolms Rolston III ekologik falsafaning mustaqil soha sifatida rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi. U butun ilmiy faoliyati davomida etika, ekologiya, tabiiy fanlar va inson manfaatlarini birgalikda, yaxlit holda o'rganib, bu tushunchalarni samarali tarzda birlashtirib, ekologik mas'uliyat tushunchasining yaxlit va mukammal ilmiy tizimini qurishga muvaffaq bo'ldi. Uning tadqiqotlarida ekologik muammolarni hal etishga kompleks yondashuv taklif etilgan. Rolstonning tahliliga ko'ra, «hozirgacha rivojlanib kelayotgan ekologik etika asosan ekologik chegaralarni belgilaydigan klassik axloqiy savolga borib taqaladi: Bu savolning mohiyati, aytish mumkinki, faqatgina axloqda emas, balki insoniyatning mas'uliyat chegaralarini belgilashda yashiringan» [6].

Gegel o'zining «Ruh falsafasi» asarida tabiat ustidan g'alaba qozonish yo'li — uning qonuniyatlariga bo'ysunish va ularni anglash ekanligini uqtiradi. «Inson tabiat qonunlarini tanigani sayin, tabiat insonning tobe'siga aylangandek ko'rinadi, biroq bu tobelik tabiat qonuniyatlarini chuqurroq anglash orqali yuzaga keladi» [7].

Nemis faylasufi Fridrix Shelling «Tabiat falsafasi tizimi» asarida inson va tabiat birligining muhim jihatlari

ochib beradi: «Tabiat va ruh birligi inson vujudida namoyon bo'ladi. Insonning tabiatdan ajralishi — uning tabiatni anglab yetishining boshlanishidir. Biroq bu anglash ayni paytda inson va tabiat orasidagi birlikning buzilishiga olib keladi» [8].

Nikolay Berdyayev «Inson taqdiri» asarida inson va texnika munosabatlari ziddiyatli xarakterini tahlil qiladi: «Inson tabiatning hukmdoriga aylangani sayin, u tabiatning quliga aylanib bordi. Insonning texnika yaratishi uning tabiat ustidan g'alabasi edi, ammo bu g'alaba texnikaning inson ustidan g'alabasiga aylanishini yozadi» [9].

Fransuz faylasufi Moris Merlo-Ponti inson va tabiatning chambarchas bog'liqligini quyidagicha ifodalaydi: «Inson va tabiatning chambarchas bog'liqligi — inson ham tabiat vujudida, tabiat ham inson vujudida yashaydi. Shuning uchun inson tabiatni buzganda, o'zini ham buzadi; tabiatni himoya qilganda esa, o'zini himoya qiladi» [10].

Norvegiyalik faylasuf Arne Ness «chuqur ekologiya» tushunchasini ilgari surar ekan, tabiatga nisbatan yangicha munosabatni taklif etadi: «Tabiat insonga faqat foydalanish ob'ekti sifatida emas, balki mustaqil qadriyat sifatida qaralishi kerak. Barcha tirik mavjudotlar o'z maqsadlari va qadriyatiga ega bo'lib, inson boshqa mavjudotlar ustidan hukmronlik qilish huquqiga ega emas» [11].

Tahlil va natijalar. Inson va tabiat munosabatlari tarix davomida asta-sekin o'zgarib borgan. Dastlab odamlar tabiatni o'zlarining bir qismi deb bilgan va uning qonunlariga moslashib yashagan. Ular tabiatga deyarli ta'sir ko'rsatmagan, bor sharoitga ko'nikishga harakat qilgan. Keyinchalik dehqonchilik va chorvachilik paydo bo'lgach, inson tabiatni o'zgartira boshladi. Yer haydab ekin ekdi, hayvonlarni boqdi, tabiatning ba'zi qonunlarini tushuna boshladi. Baribir tabiat muqaddas deb hisoblangan.

Sanoat inqilobidan so'ng odamlarning tabiatga munosabatlari keskin o'zgardi. Texnika rivojlanib, inson tabiatni o'z ehtiyojiga ko'ra boshqara olaman, degan fikrga keldi. Natijada tabiatdan haddan tashqari foydalanish kuchaydi. Umuman olganda, tarix davomida inson tabiatdan asta-sekin uzoqlashib, unga ko'proq ta'sir o'tkaza boshladi.

Hozirgi zamon inson-tabiat munosabatlarida yuqoridagi barcha davrlarning izlarini ko'rish mumkin. Biroq yangi omil sifatida ekologik inqiroz xavfi paydo bo'ldi. Inson tabiatga ta'sirining ko'lami shunchalik oshdiki, bu ta'sir natijalari global miqyosda namoyon bo'la boshladi. Iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillikning yo'qolishi, atrof-muhitning ifloslanishi kabi ekologik muammolar insonning tabiatga bo'lgan munosabatini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatmoqda.

Ekologik mas'uliyat dialektikasi o'zida inson va tabiat munosabatlarining ziddiyatli rivojlanishini, bu ziddiyatlarning yechimi sifatida yangi sifat bosqichiga o'tish imkoniyatlarini qamrab oladi. Bu dialektika quyidagi asosiy falsafiy qonuniyatlarni o'z ichiga oladi:

Birinchidan, inson va tabiat orasidagi qarama-qarshiliklar dialektikasi. Inson o'z mohiyati bilan tabiatning mahsuli bo'lsa-da, o'z faoliyati bilan tabiatga qarshi chiqadi. U bir tomondan tabiatni o'zgartiradi, boshqa tomondan esa bu o'zgarishlar natijasida tabiatning o'zi ham insonni o'zgartirishga majbur qiladi. Shu tariqa, inson va tabiat o'rtasida doimiy dialektik ziddiyatlar yuzaga keladi, ular esa o'z navbatida yangi munosabatlar sifatiga o'tish uchun zamin yaratadi.

Ikkinchidan, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tish dialektikasi. Insonning tabiatga ta'siri uzoq vaqt davomida miqdor jihatidan ortib bordi. Ammo ma'lum bir nuqtada bu miqdor o'zgarishlari sifat o'zgarishlariga aylandi — ya'ni lokal ekologik muammolar global ekologik inqiroz darajasiga ko'tarildi. Bu esa, o'z navbatida, inson-tabiat munosabatlarining yangi sifat bosqichiga o'tishini talab etmoqda.

Uchinchidan, inkorni inkor dialektikasi. Insoniyat dastlab tabiat bilan uyg'unlikda yashagan, keyinchalik esa bu uyg'unlikni inkor etib, tabiatga qarshi chiqib, uni o'zgartira boshlagan. Hozir esa insoniyat tabiatga qarshi munosabatni inkor etib, yangi, yuksak darajadagi uyg'unlikka intilmoqda. Bu jarayon «inkorni inkor» qonunining namoyon bo'lishidir.

Ekologik mas'uliyat dialektikasini tahlil etish inson va tabiat munosabatlarida yangi falsafiy tamoyillarni shakllantirishga imkon beradi. Uning asosiy tamoyili - inson va tabiatning ontologik birligi tamoyilidir. Inson tabiatdan ajralmas bo'lib, unga yetkazilgan har qanday zarar oxir-oqibat o'ziga qaytadi. Shu bois ekologik mas'uliyat insonning o'z hayoti va kelajagi uchun mas'uliyatini ifodalaydi.

Hozirgi bosqichda inson-tabiat munosabatlari iste'molchilik yondashuvidan hamkorlik va mas'uliyatga asoslangan yondashuv sari o'tmoqda. Bu o'zgarish insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichini belgilaydi. Tabiatni chuqur bilish insonda mas'uliyat hissini kuchaytiradi, chunki bilish jarayoni tabiat bilan bog'liqlikni yanada anglashga olib keladi.

Ekologik mas'uliyatning aksiologik jihati tabiatni faqat moddiy boylik sifatida emas, balki mustaqil qadriyat sifatida e'tirof etishni taqozo etadi. Tabiatning estetik, ma'naviy va ekologik ahamiyatini anglash insonning ekologik ongini boyitadi. Praksiologik jihatdan, ekologik mas'uliyat inson faoliyatining oqibatlarini anglash va ular uchun javobgarlikni his etishdir. Bu tushuncha insonni har bir harakatining ekologik natijasini oldindan ko'ra bilishga undaydi.

Ekologik mas'uliyat barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, hozirgi ehtiyojlarni kelajak avlod manfaatlariga zarar yetkazmasdan qondirishni nazarda tutadi. Shu ma'noda u iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlikni birlashtiruvchi falsafiy asos sifatida namoyon bo'ladi.

Ekologik ong va ekologik madaniyat – ekologik mas'uliyatning asosiy tarkibiy qismlari bo'lib, ular insonning tabiat bilan uyg'un yashashga intilishini ifodalaydi. Ekologik

madaniyat ta'lim, tarbiya, huquqiy va ijtimoiy mexanizmlar orqali shakllanadi.

Global ekologik muammolar - iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillikning kamayishi, cho'llanish va ifloslanish - ekologik mas'uliyatning xalqaro darajada ham shakllanishini talab qilmoqda. Shu sababli ekologik mas'uliyat individual, jamoaviy, milliy va global miqyoslarda amal qiluvchi hodisa sifatida qaraladi.

Xulosa va takliflar. Inson va tabiat o'rtasidagi munosabat insoniyat tarixi davomida bosqichma-bosqich rivojlanib kelgan: dastlab uyg'unlikda yashash, so'ng tabiatni o'z ehtiyojlariga bo'ysundirish, hozir esa ekologik muvozanatni tiklash bosqichi kuzatilmoqda. Zamonaviy ekologik inqirozlar shuni ko'rsatadiki, muammoning yechimi faqat texnik yoki iqtisodiy choralar bilan emas, balki inson tafakkuri va axloqiy qadriyatlarining yangilanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Ekologik mas'uliyat inson va tabiat birligini, tabiatni bilish orqali mas'uliyatni anglashni hamda uni mustaqil qadriyat sifatida e'tirof etishni nazarda tutadi. Uning asosi - ekologik ong va madaniyat bo'lib, ular ta'lim, madaniyat va axborot tizimlari orqali shakllanadi. Ekologik mas'uliyat individual, jamoaviy va global miqyosda namoyon bo'lishi zarur. Chunki tabiatga zarar yetkazish - insoniyatning o'z hayotiga tahdid tug'diradi. Shu bois ekologik mas'uliyat insonning o'z kelajagini asrash masalasidir. Mazkur dialektika barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan uyg'un bo'lib, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsiz texnologiyalarni rivojlantirish va atrof-muhitni muhofaza qilishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, ekologik mas'uliyat dialektikasi insonning tabiatga nisbatan iste'molchilik qarashidan hamkorlik va hurmat asosidagi munosabatga o'tishini anglatadi. Inson va tabiat uyg'unligi esa barqaror taraqqiyotning falsafiy poydevori sifatida insoniyat kelajagini belgilovchi asosiy omildir.

ADABIYOTLAR

1. Rasulova Sh.A. Inson axloqiy-ekologik madaniyatini falsafiy jihatlarlari // "Ekonomika i sotsium". №3(82) ch.2 2021. - B.272-275.
2. Sher A. Xusanov B. Axloq falsafasi. Nafosat falsafasi. - T.: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. 2008. - B14.
3. Швейцер А. Благоговение перед жизнью: Пер. с нем. / Сост. и поел. А.А. Гусейнова; Общ. ред. А.А. Гусейнова и М.Г. Селезнева. М.: Прогресс, 1992. - 576 с.
4. Леопольд О. Календарь песчаного графства / пер. с англ. И. Г. Гуровой, под ред. д-ра биол. наук, проф. А. Г. Банникова. — М.: Мир, 1980. — 216 с.
5. Naess B. The deep ecology movement: some philosophical aspects // Environmental ethics (ed. P. Rolston). — Oxford: Blackwell, 2003. — P. 112–127.
6. Rolston III H. A New Environmental Ethics: The Next Millennium For Life On Earth.- N. Y.; London: Routledge, 2012. - 246 p.
7. Гегель. Феноменология Духа. Философия истории. - М.: Эксмо, 2007. - 880 с.
8. Кваша А.П., Балаболко О. Р. Объективно-идеалистическая диалектика природы в философии Фридриха Вильгельма Йозефа фон Шеллинга // "Теория и практика современной науки" №5(23) 2017. - С.352-355.